

## **9.-sonli Ilova**

2022 yil 18 avgustdagi 506-sonli

"ASIA ALLIANCE BANK" ATBda

jismoniy shaxslar depozit hisobvaraqlarini yuritish Tartibiga

### **Jismoniy shaxsning milliy valyutada / xorijiy valyutasida talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'ini ochish va yuritish bo'yicha SHARTNOMA - OMMAVIY OFERTA**

#### **1. UMUMIY QOIDALAR**

1.1. Mazkur hujjat jismoniy shaxs bilan quyida qayd etilgan shartlarda milliy / xorijiy valyutasida talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'ini ochish va yuritish uchun shartnoma (bundan buyon matnda – "Shartnoma") tuzish yuzasidan "ASIA ALLIANCE BANK" ATB (bundan buyon matnda – "Bank") rasmiy taklifi (ommaviy ofertasi) hisoblanadi.

Bunda, "Alliance" mobil banking tizimidan (bundan buyon matnda – "Tizim") foydalanish orqali, ya'ni masofaviy tartibda faqat Bankda oldin identifikasiyalash tartib-taomilidan o'tgan jismoniy shaxslar Shartnoma tuzishlari mumkin.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining (O'zR FK) 369-moddasi 2-bandiga asosan quyida qayd etilgan shartlar qabul qilingan va:

- Tizimda talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'ini ochish uchun kerakli barcha nazarda tutilgan harakatlar amalga oshirilgan,

- Bankka talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'ini ochish to'g'risida ariza bilan murojaat qilingan holatda (Bankka bevosita murojaat qilish orqali hisobvaraqlar ochishda),

mazkur oferta akseptini amalga oshiradigan jismoniy shaxs Mijozga aylanadi (O'zR FK 370-moddasi 4-qismiga asosan oferta akseptlanishi ofertada belgilangan shartlarda shartnoma tuzilishiga teng hisoblanadi), Bank va Mijoz esa birgalikda – mazkur Shartnoma Taraflariga aylanadi.

1.3. Mijoz tomonidan Bankka taqdim qilinadigan / Tizim tomonidan tuziladigan talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'ini ochish to'g'risida ariza mazkur Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

1.4. Quyidagi holatda Shartnoma Bank va Mijoz o'rtaida tuzilgan hisoblanadi:

- Mijozning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'ini ochish to'g'risida arizasi Bank tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran;

- Tizimda ommaviy oferta aksepti Bank tomonidan olingan paytdan e'tiboran.

1.5. Oferta aksepti – Mijoz tomonidan mazkur Ommaviy ofertaning to'liq va so'zsiz qabul qilinishini (shartlarga roziligin) anglatadi (Bankka murojaat qilinganida arizani Ommaviy oferta shartlariga rozilik tasdig'i sifatida imzolash yoki Tizimda Ommaviy oferta shartlariga rozilik to'g'risida belgi qo'yish).

1.6. Agar talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'i Tizimdan foydalanish orqali ochilsa, Mijoz Tizimda Omonat ochilganligi to'g'risida tasdiqnomha, shuningdek Tizimda ro'yxatdan o'tkazilgan mobil telefon raqamiga SMS-xabarnoma oladi.

#### **1. Shartnoma predmeti**

2.1. Bank Mijozga talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'ini ochadi va Hisobvaraqlar tushadigan pul mablag'larni qabul qilish va hisoblab yozish, Mijozning Hisobvaraqlar tegishli summalarini chegirib olish, o'tkazish va berish hamda Hisobvaraqlar bo'yicha boshqa amaliyotlarni amalga oshirish to'g'risidagi topshiriqlarini bajarish majburiyatini oladi.

#### **3. Hisobvaraqlar ochish va yuritish tartibi**

3.1. Hisobvaraqlar ochish uchun Bankka murojaat qilinganida Mijoz quyidagi hujjalarni taqdim qiladi:

- hisobvaraqlar ochish uchun ariza;

- Mijozning shaxsini tasdiqlovchi hujjat, shuningdek qonun hujjalari uchun asosan boshqa hujjalarni.

3.2. Mijoz Bankka bevosita murojaat qilish orqali Hisobvaraqlari ochishda uning xohishiga ko'ra omonat daftarchasi berilishi mumkin.

3.3. Hisobvaraqlari bo'yicha amaliyotlar ro'yxati, hisob-kitoblar shakllari va Bank tomonidan taqdim qilinadigan xizmatlar qonun hujjatlariga asosan belgilanadi.

3.4. Mijozning hisobvarag'idan to'lovlar Hisobvaraqdagi pul mablag'lari qoldig'i doirasida amalga oshiriladi.

3.5. Bank Tariflarda Mijoz Hisobvarag'idagi pul mablag'lari qoldig'iga foiz stavkasini belgilaydi. Bunda Bank foiz stavkasini 0% miqdorida belgilashga haqli.

3.6. Mijozga xizmat ko'rsatish Bank tomonidan Bankda belgilangan Mijozlar bilan ishslash rejimiga asosan amalga oshiriladi.

#### **4. Bank huquqlari va majburiyatları**

##### **4.1. Bank quyidagi majburiatlarga ega:**

4.1.1. Sharhnomada belgilangan hujjatlar Mijoz tomonidan taqdim qilinganidan so'ng Mijozga Hisobvaraqlari ochish.

4.1.2. Mijozga Hisobvaraqqacha xizmat ko'rsatilishiga bevosita tegishli masalalar bo'yicha maslahatlar berish.

4.1.3. Qonun hujjatlariga asosan Mijozdan va uchinchi shaxslardan Mijoz nomiga naqd pul va naqd pulsiz shaklda Bankka tushgan pul mablag'larini qabul qilish.

4.1.4. Mijoz hisobvarag'iga tushgan pul mablag'larini Bankka tushgan paytdan e'tiboran kelgusi ish kunidan kechikmay o'tkazish.

4.1.5. Mijozning hisobvaraqlari bo'yicha amaliyotlarni amalga oshirish uchun topshiriqlarini qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda bajarish. Mijozning ruxsatsiz hisobvaraqdagi pul mablag'larini chegirib olish Bank tomonidan qonun hujjatlarida, shuningdek mazkur Sharhnomada belgilangan holatlarda amalga oshirilishi mumkin.

4.1.6. Mijoz yoki uning ishonchnoma asosida faol yurituvchi vakillari talabiga binoan Hisobvaraqdandan ko'chirmalar va ma'lumotlarni taqdim qilish.

4.1.7. Mijoz yoki uning vakillari birinchi talabiga binoan pul mablag'lari berilishini amalga oshirish.

4.1.8. Mijozga Hisobvaraqlari ochishda Mijoz tomonidan qayd etilgan telefon raqamiga amalga oshirilgan amaliyotlar to'g'risida SMS-xabarnoma yuborish.

Mijozning talabiga asosan amaldagi Tariflar va xizmat ko'rsatish shartlari to'g'risida axborot taqdim qilish.

4.1.9. Hisobvaraqlari to'g'risida, hisobvaraqlari bo'yicha amaliyotlar va Mijoz to'g'risida bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlarning tegishlicha saqlanishini ta'minlash. Ushbu ma'lumotlar qonun hujjatlariga asosan faqat bevosita Mijozga, uning vakiliga, shuningdek uchinchi shaxslarga taqdim qilinishi mumkin.

4.1.10. Bank Hisobvaraqdagi mablag'larning tegishlicha saqlanishini va daxlsizligini kafolatlaydi. Hisobvaraqdagi mablag'larning xatga olinishi yoki Hisobvaraqlari bo'yicha amaliyotlarning to'xtatib qo'yilishi faqat qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda amalga oshirilishi mumkin.

##### **4.2. Bank quyidagilarga haqli:**

4.2.1. Mijoz tomonidan qonun hujjatlari buzilishidan dalolat beradigan faktlar aniqlangan holatda, hisob-kitob va kassa amaliyotlari amalga oshirilishini rad qilish.

4.2.2. Hisobvaraqdandan pul mablag'lari chegirib olinishini quyidagi holatlarda akseptsiz va/yoki muqarrar tartibda amalga oshirish:

- mazkur Sharhnomaning 4.2.2-bandiga asosan Bankka tegishli summalar olinishida;
- Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan, Hisobvaraqdandan pul mablag'larini muqarrar chegirib olish tartibi nazarda tutilgan boshqa sharhnomalarga asosan;
- ijro hujjatlari asosida, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

4.2.3. Hisobvaraqnini kreditlash yoki debetga yozish bo'yicha xato yozuvlar aniqlangan holatda Bank Mijoz bilan qoshimcha kelishilmagan holda Hisobvaraqnini kreditlash yoki debetga yozish orqali tuzatish kiritishga haqli.

4.2.4. Mijozning Hisobvaraqdagi pul mablag'laridan moliya resurslari manbai sifatida foydalanganda, Hisobvaraqa talabnomalar qilingan holatda mablag'lar butligini va Hisobvaraqlar egasining ushbu mablag'lardan Hisobvaraqdagi summalar doirasida to'siqsiz foydalanish huquqini kafolatlaydi.

4.2.5. Bank Tariflarida belgilangan komissiya haqi miqdorini bir tomonlama tartibda o'zgartirish, qoshimcha kelishuv tuzilmagan holda Tariflarga va mazkur Shartnomaga o'zgartirishlar / qoshimchalar kiritish, bunda bu haqda Mijoz o'zgartirishlar / qoshimchalar kuchga kiritilgungacha 10 (o'n) kalendar kunidan kechikmay xabardor qilinishi shart. Mijozning xabardor qilinishi, Bank tanloviga ko'ra, quyidagi usullardan biri orqali amalga oshiriladi:

- 1) Bank rasmiy saytida axborot joylashtirish: [www.aab.uz](http://www.aab.uz);
- 2) Bank ofislaridagi axborot stendlarida e'lon joylashtirish;
- 3) yoki Bank ixtiyoriga ko'ra boshqa usulda.

Bank tomonidan kiritilgan o'zgartirishlar / qoshimchalar yuzasidan 10 kun muddatda Mijozdan e'tirozlar tushmagan holatda, ushbu o'zgartirishlar / qoshimchalar Mijoz tomonidan qabul qilingan hisoblanadi. Agar Mijoz kiritilgan o'zgartirishlar / qoshimchalarga rozi bo'lmasa, u mazkur bandda belgilangan muddat mobaynida Bankka yozma shaklda rad javobini, hisobvaraqnini yopish uchun arizani taqdim qilishi shart.

4.2.6. Mijozdan uni identifikasiyalash uchun kerakli qoshimcha hujjatlar taqdim qilinishini talab qilish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga asosan Mijozdan hisobvaraqlar bo'yicha amalga oshiriladigan amaliyotlar bo'yicha qoshimcha axborotni talab qilib olish.

4.2.7. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari nazarda tutilgan holatlarda, Mijozning Hisobvaraqlar bo'yicha amaliyotlarini to'xtatib qo'yish va Mijozning Hisobvaraqlar bo'yicha amaliyotlarni amalga oshirish to'g'risidagi topshiriqlari bajarilishini rad qilish (mablag'larni kirim qilish bo'yicha amaliyotlar bundan mustasno).

## 5. Mijoz huquqlari va majburiyatları

### 5.1. Mijoz quyidagi majburiyatlarga ega:

5.1.1. Hisobvaraqnini ochish va Hisobvaraqlar bo'yicha amaliyotlarni amalga oshirish uchun Bankka qonun hujjatlari nazarda tutilgan hujjatlarni taqdim qilish.

5.1.2. Bankda belgilangan ish rejimiga, hujjatlarni rasmiylashtirish va taqdim qilish tartibiga rioya qilish, bank faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlari talablarini bajarish, shuningdek, Komplayens shartlariga roziligidini tasdiqlash (ushbu Shartnomaga 1-sonli Ilova).

5.1.3. Bankni shartnomada qayd etilgan ma'lumotlar o'zgarishlari, telefon raqamlari, pasport ma'lumotlari (Mijoz va uning vakolatli shaxslari ma'lumotlari) o'zgarishlari, shartnomalar bekor qilinganligi va Taraflar tomonidan mazkur Shartnomasi bo'yicha majburiyatlar ijrosiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan boshqa o'zgarishlar to'g'risida xabardor qilish. O'z manzili, telefon raqamlari va pasport ma'lumotlari o'zgargan holatda bu haqda Bankni bunday o'zgarishdan so'ng 5 (besh) kalendar kuni mobaynida xabardor qilish. Mijoz pasport ma'lumotlari o'zgargan holatda Bankka shaxsini tasdiqlovchi yangi hujjatni taqdim qiladi. Aks holda Bank Mijoz oldida Bankda yuqorida qayd etilgan ma'lumotlar yo'qligi bilan bog'liq ehtimoliy salbiy oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

5.1.4. Hisobvaraqa mablag'lar o'tkazish va/yoki Hisobvaraqdandan mablag'larni chegirib olish bo'yicha amaliyotlarda xatolik aniqlangan holatda bu haqda darhol Bankka ma'lum qilish.

5.1.5. Bank Tariflariga asosan Bank tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar haqini to'lash. Mazkur Shartnomani imzolash orqali Mijoz O'zR FK 783-moddasiga asosan Bank xizmatlari to'loviga Hisobvaraqdandan pul mablag'larining akseptsiz chegirib olinishiga rozilik beradi.

5.1.6. Hisobvaraqlar Bank xizmatlari uchun komissiya haqini to'lashga yetarlicha pul mablag'lari mavjudligini ta'minlash.

5.1.7. Hisobvaraqlardan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq amaliyotlarni amalga oshirish uchun foydalanmaslik.

5.1.8. Bank talabiga asosan Hisobvaraqlar bo'yicha amaliyotlarga tegishli bo'lgan, Hisobvaraqlar bo'yicha o'tkaziladigan amaliyotlarning qonun hujjatlari normalariga muvofiqligini tekshirish uchun kerakli hujjatlar va axborotni darhol taqdim qilish.

5.1.9. Bankdan omonatdagi pul mablag'lari qoldiqlarini tasdiqlash to'g'risida SMS-xabarnoma olingan holatda, Bankka so'ralgan shaklda javob yuborish.

### **5.2. Mijoz quyidagilarga haqli:**

5.2.1. Bankka bevosita murojaat qilish orqali Hisobvaraqlar ochgan Mijozlar Tizimidan foydalanish orqali Hisobvaraqlar masofaviy boshqarishga (barcha ruxsat berilgan amaliyotlarni amalga oshirishga, Hisobvaraqlar yopishga) haqli.

5.2.2. O'z hisobvaraqlaridagi pul mablag'lardan mustaqil ravishda, shuningdek qonun hujjatlariga asosan rasmiylashtirilgan ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi vakili orqali foydalanish.

5.2.3. Bank o'tkazmasi orqali o'z hisobvaraqliga naqd pul shaklida yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda pul mablag'larini to'lash.

5.2.4. Bank xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha Bankdan kerakli axborot va konsultasiya xizmatlarini hamda amaliyotlar bajarilganligini tasdiqlavchi kerakli hujjatlarni olish.

5.2.5. Hisobvaraqlaridagi pul mablag'lari summasini to'liq yoki qisman talab qilib olish.

## **6. Bank xizmatlari to'lov miqdori va tartibi**

6.1. Mazkur Shartnomaga doirasida Mijozga ko'rsatiladigan xizmatlar uchun Bank tomonidan tasdiqlangan Tariflarga asosan haq olinadi.

6.2. Mazkur Shartnomaga asosan Bank tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun komissiya haqi, amaliyotlar amalga oshirilishiga qarab, Bank tomonidan Hisobvaraqlardan pul mablag'laringning akseptsiz chegirib olinishi orqali olinadi yoki Mijoz tomonidan bevosita Bank kassasiga naqd pul mablag'larini kiritish orqali to'lanadi.

## **7. Taraflar javobgarligi**

7.1. Mijoz Bankka taqdim qilingan hujjatlarda qayd etilgan ma'lumotlar to'g'riliği hamda Hisobvaraqlar bo'yicha mablag'lari joylashtirilishi va amaliyotlar o'tkazilishi qonuniyligi uchun to'liq javobgar bo'ladi.

7.2. Bank tomonidan Mijozga tegishli pul mablag'laringning o'z vaqtida o'tkazilmaganligi yoki noto'g'ri o'tkazilganligi uchun Bank qonun hujjatlariga asosan javobgar bo'ladi.

7.3. Boshqa holatlarda Taraflar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda javobgar bo'ladilar.

7.4. Bank Shartnomada ijrosi uchun ahamiyatli vaziyatlar to'g'risida, shuningdek Hisobvaraqlar pul mablag'lari xato o'tkazilganligi, Bankka oldin ma'lum qilingan ma'lumotlar o'zgarishlari, vakilning vakolatlari bekor qilinganligi to'g'risida o'z vaqtida / to'liq yozma shaklda xabardor qilinmagan holatlarda, ehtimoliy salbiy oqibatlar uchun javobgarlik Mijozga yuklatiladi.

7.5. Mijoz tomonidan Bankka qonun hujjatlari talablariga javob bermaydigan hujjatlar taqdim qilingan, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Bank yoki Mijozning hisobvaraqlari bo'yicha amaliyotlar to'xtatib qo'yilgan holatda Bank mazkur Shartnomaga bo'yicha o'z majburiyatlar bajarilmaganligi yoki tegishlichcha bajarilmaganligi uchun jarima sanksiyalarini to'lashdan ozod qilinadi.

7.6. Taraflardan istalgan biri mazkur Shartnomaga bo'yicha o'z majburiyatlar bajarilmaganligi (tegishlichcha bajarilmaganligi) O'zbekiston Respublikasi vakolatlari organlari va tashkilotlari tomonidan tasdiqlanadigan yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) vaziyatlarini boshlanishi oqibatida yuz bergen holatda, bunday majburiyatlar bajarilmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, ushbu vaziyatlar quyidagilardan iborat: urush holatlari, tabiiy va

boshqa rasmiy e'tirof etilgan harakatlar/hodisalar; banklararo elektron to'lovlar tizimidagi ehtimoliy uzilishlar; Shartnoma shartlari bajarilishi mumkin bo'lmasligiga olib keladigan davlat va ijro hokimiyati organlari hujatlari.

## **8. Shartnomaning amal qilish muddati va uni bekor qilish tartibi**

8.1. Mazkur Shartnoma uning 1.4-bandida belgilangan paytdan e'tiboran kuchga kiradi va nomuayyan vaqt mobaynida amal qiladi.

8.2. Shartnoma istalgan vaqtda Mijozning arizasiga asosan bekor qilinishi va Hisobvaraqligini yopilishi mumkin.

8.3. Mijozning Bankka bevosita murojaat qilishi orqali ochilgan Hisobvaraqligini yopilganida, Bank oldida qarzdorlik bo'limgan holatda, Mijozning tegishli yozma shakldagi arizasi olingan kundan keyingi kundan kechikmay hisobvaraqdagi pul mablag'lari qoldiqlari Mijozga beriladi yoki uning topshirig'iga asosan boshqa hisobvaraqqaga o'tkaziladi.

Mijozga bevosita Tizimdan foydalanish orqali ochilgan Hisobvaraqniga Mijozning o'zi Tizimda Mijoz tomonidan qayd etilgan hisobvaraqqaga pul mablag'lari o'tkazish orqali yopadi.

8.4. Omonat qaytarilishi Bankning barcha mulki bilan ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida fuqarolar omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4057-soni Farmoniga asosan tijorat banklarida fuqarolar omonatlarini bo'yicha to'lovlar, omonatlar hajmidan qat'iy nazar, depozit hisobvaraqlaridan to'liq hajmda kafolatlanadi.

8.5. Bank hisobvarag'i shartnomasining bekor qilinishi Mijoz Hisobvarag'ini yopish uchun asos hisoblanadi.

8.6. Mazkur Shartnoma qonun hujatlarda nazarda tutilgan holatlarda Bank talabiga asosan sud tomonidan bekor qilinishi mumkin.

## **9. Boshqa shartlar**

9.1. Mijozning boshqa shaxslar bilan hisob-kitoblar bo'yicha o'zaro e'tirozlari ular tomonidan Bank ishtirosiz ko'rib chiqiladi.

9.2. Mazkur Shartnoma tuzilishi, bekor qilinishi, ijrosi bilan bog'liq barcha nizolar va kelishmovchiliklarni, shuningdek kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolarni Taraflar muzokaralar orqali hal qilish majburiyatini oladilar. Kelishuvga erishilmagan holatda nizo sud tomonidan hal qilinadi.

9.3. Mazkur Shartnomada tartibga solinmagan barcha masalalar bo'yicha Taraflar qonun hujatlariiga amal qiladilar.

9.4. Mijoz Bank Tariflari bilan tanishib chiqdi va rozilik bildirdi.

## **10. BANK YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI**

### **«ASIA ALLIANCE BANK» ATB**

**Manzili:** Toshkent sh., Yashnobod tumani,

Maxtumquli ko'chasi, 2a

STIR: 207018693

OKED: 64190 OKPO: 22921172

Bank rekvizitlari:

h/r: 2980200000001095001

MFO: 01095

tel.: 71-231-60-00

Imzo: \_\_\_\_\_

M.O`.

## KOMPLAYENS SHARTLARI

### 1. Maqsad va ta'riflar

1.1. Ushbu Komplayens shartining maqsadi (bundan buyon matnda – Qoidalar) Shartnoma taraflari uchun “Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish” (bundan buyon matnda – **JDL/TM/OQQTMQK**), “Poraxo'rlik va korrupsiyaga qarshi kurashish” (bundan buyon matnda – **PKQK**), “Sanksiyalar va eksportni nazorat qilish choralar” (bundan buyon matnda – Sanksiyalar) sohalarida yuzaga keladigan komplayens tavakkalchilikni kamaytirishdir.

**Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirish** – egalik qilishning qonuniy shaklini berib, jinoyat natijasida olingen pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkdan foydalanish yoki tasarruf etish.

**Terrorizmni moliyalashtirish** – bu terrorchilar va terrorchilik faoliyatini mablag' bilan ta'minlash yoki moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

**Korrupsiya** – shaxs (bank xodimlari)ning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.

**Poraxo'rlik** – bu oluvchiga ta'sir o'tkazish va undan noqonuniy xatti-harakatlar olishga harakat qilish maqsadida qimmatliklar berish, va'da qilish yoki ruxsat berish, qimmatliklar olish yoki berish yoki oluvchi tomonidan nafni qabul qilish noqonuniy bo'lgan holat.

**Sanksiyalar** – tegishli yurisdiksiyadagi davlat organlari tomonidan o'rnatilgan, belgilangan yoki joriy qilingan iqtisodiy yoki moliyaviy cheklovlar yoki savdo embargolarini anglatadi.

**Sanksiyalar ro'yxati** – bu sanksiyalar qo'llaniladigan jismoniy va/yoki yuridik shaxslar, hududlar, mamlakatlar, tovarlar va xizmatlarning reyestri.

**Eksport nazorati** – tovarlar, texnologiyalar, texnik ma'lumotlar, dasturiy ta'minot yoki xizmatlarni import qilish, eksport qilish, qayta eksport qilish, transfer, chiqarish, jo'natish, o'tkazish yoki har qanday taqdimot yoki qabul qilishni tartibga solish bilan bog'liq qonunlar yoki huquqiy hujjatlar, shuningdek davlat organlari tomonidan qo'llaniladigan va amalga kiritiladigan har qanday qonunlar yoki shunga o'xshash xarakterdagi huquqiy hujjatlar.

**Sanksiyalar tavakkalchiligi** – bu bank tranzaksiyaviy xizmatlari, uning ta'sischisi, benefitsiari yoki nazorat qiluvchi shaxsga nisbatan Amerika, Yevropa sanksiyalari yoki davlatlar va xalqaro yurisdiksiyalar tomonidan qabul qilingan boshqa sanksiyalar qo'llanilishi mumkinligi ehtimoli.

**Bloklangan shaxs** – mol-mulki yoki mulkka bo'lgan huquqi sanksiyalar bilan bloklangan (a), sanksiyalarga muvofiq aktivlarini muzlatish obyekti sifatida belgilangan (b), tegishli sanksiyalar yoki eksport nazorati choralariga muvofiq bitimlari ta'qilangan (v) yoki sanksiyalar ro'yxatidagi shaxsga tegishli yoki uning nazorati ostidagi (g) har qanday shaxs.

**Moliyaviy firibgarlik** – noqonuniy boylik orttirish maqsadida aldash, ishonchni suiiste'mol qilish va boshqa manipulyatsiyalar orqali pul muomalasi sohasida qonunga xilof hatti-harakatlar sodir etish.

**Mijoz** – mazkur Qoidalar qo'llaniladigan “ASIA ALLIANCE BANK” ATB (bundan buyon matnda – Bank) bilan tuzilgan shartnomada belgilangan tomon, yuridik yoki jismoniy shaxs.

**Affillangan shaxs** – mijozning faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

**Korrespondent bank** – “ASIA ALLIANCE BANK” ATB bilan amaliy ish munosabatlarda bo‘lgan va Bank topshirig‘i bo‘yicha to‘lovlar, hisob-kitoblar va boshqa operatsiyalarni shartnomaga asosida amalga oshiradigan bank.

## 2. Huquqiy asoslar

2.1. Bank ushbu Qoidalar doirasida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va xalqaro standartlarga amal qiladi.

2.2. Ichki qonunchilik bo‘yicha hujjatlar:

- O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi;
- “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun;
- “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qarshilashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun;
- “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qarshilashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalari” (ro‘yxat raqami 2886, 23.05.2017 y.);
- Bankning JDL/TM/OQQTMQK, PKQK va Sanksiyalar sohasidagi tartib-taomillari.

2.3. Xalqaro standartlar:

- Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha moliyaviy choralar ishlab chiquvchi guruhning Tavsiyalari<sup>[1]</sup> (ingl. Financial Action Task Force on Money Laundering – FATF);
- ISO 37001:2016 – tashkilotda korrupsiyaga qarshi samarali tizimni yaratish uchun xalqaro modelni o‘z ichiga olgan xalqaro standart<sup>[2]</sup>;
- BMT, OFAC (AQSH Moliya vazirligining Chet el aktivlarini nazorat qilish boshqarmasi), EC (Yevropa ittifoqi, Yevropa komissiyasi), UK (Birlashgan Qirollik, Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya) va boshqa xorijiy davlatlarning vakolatli organlarining sanksiyalar ro‘yxati<sup>[3]</sup> va xalqaro tashkilotlarning sanksiyalar ro‘yxati, shuningdek boshqa rasman e’lon qilingan tarmoq sanksiyalarini va/yoki eksport nazorati ro‘yxatlari;
- Bankning Korrespondent banklarining JDL/TM/OQQTMQK, PKQK va Sanksiyalar sohasidagi talablari.

## 3. Mijozning tasdig‘i

3.1. Bank bilan shartnomaviy munosabatlarni o‘rnatishda Mijoz ushbu Qoidalarning 2.2-bandida ko‘rsatilgan qonun hujjatlariga, shuningdek 2.3-bandida ko‘rsatilgan xalqaro standartlarga rioya qilishini tasdiqlaydi, shu jumladan, Mijoz:

- Bank bilan shartnomaviy munosabatlardan doirasida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishni amalga oshirmaydi;
- Bank bilan shartnomaviy munosabatlardan doirasida moliyaviy firibgarlikda ishirok etmaydi;
- Bank xodimiga pora taklif qilmaydi, bermaydi, Bank xodimidan pora olmaydi;
- Bank nomidan uchinchi shaxslarga pora taklif qilmaydi yoki bermaydi;
- Bank bilan shartnomaviy munosabatlardan doirasida sanksiyalar ro‘yxatida bo‘lgan tomon bilan kelishuvlar tuzmaydi, bank operatsiyalarini amalga oshirmaydi;
- Bank bilan shartnomaviy munosabatlardan doirasida tomonning affillangan shaxslari sanksiyalar ro‘yxatida bo‘lgan shaxslar bilan shartnomalar tuzmaydi, bank operatsiyalarini amalga oshirmaydi;
- eksport nazorati ostida bo‘lgan tovarlar va xizmatlar bo‘yicha uchinchi shaxslar bilan shartnomalar tuzmaydi, bank operatsiyalarini amalga oshirmaydi;

- sanksiyalar ro‘yxatida bo‘lgan banklar (*shu jumladan, ularning affillangan shaxslari*) orqali bank operatsiyalarini amalga oshirmaydi;
- bank bilan shartnomaviy munosabatlar doirasida amalga oshirilayotgan tranzaksiyalar, kontraktlar, operatsiyalar ishtirokchilari, tovarlar va xizmatlar, mablag‘lar harakati to‘g‘risidagi hujjatlar va ma’lumotlarning to‘liq va shaffof taqdim etilishini ta’minlaydi;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va xalqaro standartlarga zid bo‘lgan noqonuniy operatsiyalarini amalga oshirishni maqsad qilmaydi;
- Mijoz ushbu Qoidalarga rioya qilmasligi natijasida kelib chiqadigan zararlar, chiqimlar, yo‘qotishlar, majburiyatlar, jarimalar, penyalar va/yoki xarajatlarni (shu jumladan, advokat xarajatlari va gonorarlarini) qoplash uchun Bankni javobgarlikdan ozod qiladi.

#### **4. Bankning huquqlari**

- 4.1. Mijoz ushbu Qoidalarning 3-bandi talablarini buzgan taqdirda, Bank Mijoz bilan shartnomaviy munosabatlarni bir tomonlama bekor qilishga haqli.
- 4.2. Korrespondent banklar tomonidan Bankka nisbatan sanksiyalar yoki boshqa cheklovchi choralarни qo‘llash xavfi mavjud bo‘lsa, Bank hisobvaraqnı ochishni va bank operatsiyalarını amalga oshirishni rad etishga haqli.

<sup>1</sup> <https://www.fatf-gafi.org/>

<sup>1</sup> <https://www.iso.org/ru/iso-37001-anti-bribery-management.html>

<sup>1</sup> G7 davlatlari – Fransiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Italiya va Kanada